

MAKTAB — HAYOTIMDAGI ILK SAFAR

Usmanova Dinora G'ulomjon qizi

Maktab — bu mening hayotimdagi ilk safarim desam, adashmagan bo‘laman. Sababi, men bu safarni bolaligidan, maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘yib, qo‘limda prezident sumkasi va yuragimda hayajon bilan boshlaganman. O‘sha birinchi qo‘ng‘iroq sadosi hanuz qulog‘imda jaranglab turadi. Shu mitti yuragim qo‘ng‘iroq ovozi eshitib qanday hayajonlanganini eslasam, yuzimda tabassum paydo bo‘ladi.

Birinchi kundan boshlab maktab menga nafaqat harf va raqamlarni o‘rgatdi, balki hayotiy saboqlarni ham berdi. Maktabda men birinchi ustozimni, ilk darsimni, birinchi baholarimni va eng yaqin do‘stlarimni topdim. Har bir o‘qituvchi menga yangi bir dunyo eshigini ochdi.

Yillar o‘tdi. Ayni damda men 11-sinf bitiruvchisiman. O‘rtda qolgan o‘n bir yil menga sabrli bo‘lishni, mehnatsevarlikni va eng muhimi qo‘qilganda to‘xtab qolmasdan, yo‘limni davom ettirishni o‘rgatdi. Oldinda esa yangi hayot bosqichi kutmoqda. Bu safar endi men mustaqil hayot sari qadam qo‘yyapman.

Qo‘ng‘iroq yana chalinmoqda xuddi birinchi sinfdagidek. Farqi shundaki: avval u ilk bora yangragan bo‘lsa, endi esa maktab hayotimdagi so‘nggi qo‘ng‘iroq sifatida jarang sochmoqda.